

## MILLIY MAQOLLARDA REALIYA VA LINGVOMADANIY KODLAR

**Yuldasheva Orasta Ravshanbekovna**

O'zMU magistranti

[Yuldasheva1994orasta@gmail.com](mailto:Yuldasheva1994orasta@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollari lingvomadaniy tahlilga tortilgan. Unda realiya va lingvomadaniy kodlarni aniqlab, ularning o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy mentalitet, milliy tafakkur va dunyoqarashini aniqlashdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Realiya va lingvomadaniy kodlar turlarga ajratilinib, ularning o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, lingvomadaniy kod, biomorf kod, ma'naviy kod, realiya

## REALITY LINGUISTIC AND CULTURAL CODES IN NATIONAL PROVERBS

### ABSTRACT

In this article, Uzbek folk proverbs are analyzed in linguistic and cultural terms. It defines reality and linguistic codes and talks about their role in determining the national mentality, national thinking and worldview characteristic of the Uzbek people. Realia and linguistic and cultural codes are divided into types, and their role in Uzbek linguistic and cultural is discussed.

**Keywords:** linguistic culture, linguocultural code, biomorphic code, spiritual code, reality

### KIRISH

Til madaniyatning qiyofasini belgilab, uning vorisiyligini ta'minlaydi. Bunda har bir lingvomadaniyatdagi insonning olam haqidagi tasavvurlariga to'g'ri keladigan va ularning lisoniy shakllari bo'lgan madaniyat kodlari muhim ahamiyatga ega. Ma'lum bir til egalarining borliq haqidagi tasavvurlarini anglash uchun ular kabi tasavvurga ega bo'lish talab etiladi, ya'ni "u yoki bu til kodini anglab, o'sha lingvomadaniyat haqida mulohaza qilishimiz mumkin. Madaniyat kodi haqida bilimga ega bo'lmasdan, bunga erishish qiyin"[1]. Bu holat, ayniqsa, maqollarda yaqqol seziladi. Chunki maqollar ma'lum bir voqealikni shu til egalarining lingvomadaniy salohiyati orqali

ularning tasavvur doirasida insoniyat faoliyatini obrazli shakllantiradi va maqollar madaniyat kodlarini o‘zida mujassam etib, ularni ajdodlardan avlodlarga yetkzadi.

Milliy realiya muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi; boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari [2].

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Ma’lumki, keyingi yillarda lingvokulturologiyada madaniyat kodlariga qiziqish ortib bormoqda va ular tur, sistema va mavzu jihatdan tavsiflanib o‘rganilmoqda. Madaniyat kodlari olimlar tomonidan turlicha tavsiflangan, ya’ni madaniyat kodlari, madaniy kodlar [3] va lingvomadaniy kodlar [4]. Lekin ularning farqli yoki o‘xhashliklari izohlangan emas. Bizning fikrimizcha, bu terminlarni sinonim sifatida ishlatish mumkin. Jahan tilshunosligida madaniy kodlar atroflicha o‘rganilgan. E.A.Xomyakov madaniyat kodlarini 28 turga bo‘lib o‘rgangan [5]. V.V.Krasnixning fikriga ko‘ra, kodlarni quyidagi asosiy tiplarga ajratish mumkin: somatik, makoniq, zamoniy, predmetli, biomorf va ma’naviy kodlar [6].

G.D.Tomaxin realiyalarni muayyan millat va xalqlarga tegishli bo‘lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutsiyalari, milliy va xalq og‘zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va boshqalar nomlari deb ta’riflaydi [7]. Tomaxin realiyalarga bergen ta’rifidan ularning semantik hajmi keng ekanligi anglashilinadi.

Z.Xolmonova va O.Saidaxmedovalarning “Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi” kitobida “realiya” so‘zining etimologiyasi lotincha “moddiy” degan tushunchaga teng kelishi aytildi [8].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

*Tug‘ilmagan Tilovga tilla beshik* [10] maqolida realiya va ma’naviy kod ishtirok etgan. O‘zbek xalqi juda bolajon. Maqoldagi tug‘ilmagan Tilov birikmasi ma’naviy koddir. Chunki bu birikma hali dunyoga kelmagan farzandni anglatadi. Chaqaloqqa ism qo‘yish ham katta mas’uliyat. Qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha amal qilib kelinayotgan odat bor: o‘g‘il fazrzandi yo‘qlar, qiz farzandiga Zuhra, Shirin, O‘g‘iloy ismlarini yoki uzoq yillar mobaynida kutilgan farzandlarga Bardoshbek, Intizor ismlarini qo‘yishgan. Ilm-fan rivojlanmagn paytlarda yengil kasalliklar bilan og‘igan farzandlar ham nobud bo‘lgan. Ko‘p farzandlari tug‘ilmasdan yoki tug‘ilganidan keyin vafot etaversa, ota-onasi, yaqin qarindoshlari chaqaloqqa Tursunoy, Durxonim, Hadicha, Turdiali, Ko‘paysin, Muhammad ismlarini qo‘yishgan. Tilov xudodan so‘ralayotgan farzandning ismi ma’nosida kelgan. Tilla beshik – beshik yog‘ochdan qilinadi, ammo ma’noni yanada kuchaytirish maqsadida tilla beshik

birikmasidan foydalanilgan. Ya’ni ota-onal shunchalik intizor bo‘lib farzand kutyaptiki, tilab olinayotgan Tilovga tilladan ham beshik qilib berishga tayyor. Maqolda beshik milliy realiyasi va Tilov ma’naviy kodlari ishtirok etgan.

**Bolasiz xotin sumakka to‘ymas** [10] Beshik milliy realiyasini realiya deb atash bahsli, ammo biz beshikni milliy realiya deb talqin qildik. Bunday qarorga kelishimizning sababi shundaki, beshikning yasalishi hamma xalqlarda deyarli bir xil bo‘lgani bilan bolani belashda foydalaniladigan asboblar farqlanadi. Eng katta farqi sumakda.

*Sumak* – beshikka belangan chaqaloqning siydigini tuvakka yo‘naltiruvchi naysimon asbob. Sumak ikki xil bo‘ladi: o‘g‘il sumak va qiz sumak [11].

Yangi tug‘ilgan chaqaloq qadimi odatlarimizga ko‘ra, beshikka belanadi. Ushbu maqolda ham shunga ishora bor. Farzandi yo‘q bo‘lsa ham, niyat qilib narsa oladiganlarga nisbatan shu maqol aytilgan. Maqoldagi *sumak* predmeti milliy realiyadir.

Xalqimizning ustoz-shogirdlik an’anasi, mehmon kutish odobi, hasharga borish, mahallaning yaxshi-yomon kuniga yarash kabi o‘zbek millatiga xos bo‘lgan, milliy mentalitetni ifodalovchi maqollardagi milliy realiya va lingvomadaniy kodlar o‘zbek xalqining milliy koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, lingvomadaniy kodlar unutilgan urf-odatlarni tushunishga yordam beradi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qadriyatlar asosida shakllangan maqollarda o‘zbek xalqiga xos mehmonlarni e’zozlash, bolajonlik, hurmat, jonkuyarlik va boshqa fazilatlar namoyon bo‘ladi.

**Mehmon ko‘rki – dasturxon** [10] mehmondorchilikning o‘ziga xos odatlari asosida shakllangan ushbu maqolda dasturxon milliy realiyasi va predmetli lingvomadaniy kodi ishtirok etgan. Aslida fors-tojikcha so‘z bo‘lgan dasturxon o‘zbek madaniyati anglatadi. Dasturxon – o‘rtaga yoyib, ustiga non, ovqat va boshqa noz-u ne’matlar qo‘yiladigan mato, ro‘g‘or buyumi. O‘zbek tilida dasturxon so‘zi metonimiyyaga asoslangan ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi: 1) “taom, noz-ne’mat”: dasturxonga qaramoq; 2) “taom, noz-ne’matlarni tanovul qilish jarayoni”: dasturxonga o‘tirmoq. Xalqimizda mehmonga borganda u-bu narsa olib borish odati bor. Dasturxon so‘zi shunga ishora qilyapti. Oldingi zamonlarda mehmonga borganda dasturxonga (laganga) solib patir, non, shirinlik, somsa va boshqa tansiq yeguliklar olib borishgan. Hozirgi kunda ham, aynan, dasturxon olib yurishmasa ham mezbonning uyiga nimadir olib kirish odati saqlangan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”ida ham mehmondorchilik haqidagi maqol uchraydi: *barig‘ otru tutsak, joqqa sanmas*. Bor narsani mehmonga taqdim etilsa, mehmon yo‘qqa sanamas [9]. Bu maqol hozirgi kunda ham aytiladi: *Mezbon borini qo‘ysa, mehmon yo‘qqa sanamas*.

*Chiroying borida chinoringni top* [10] qizlarga maslahat ma’nosida aytildigan bu maqolda chinor biomorf kodi ishtirok etgan. Bu fitomorf kodi baquvvat, barkamol yigit o‘rnida qo‘llangan. Aynan, chinor daraxtiga o‘xshatilishi sababi shundaki, chinor bo‘yi baland, tanasi baquvvat, og‘ochi yengil va pishiq [12].

- *Joyi chiqib turibdi, xo ‘p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo ‘ladigan yigit.*

- *Men undaychikin odamni bilmayman...*

- *Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. Chiroying borida chinoringni top!*

(Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar” qissasi)

## XULOSA

Xalqimizning ustoz-shogirdlik an’anasi, mehmon kutish odobi, hasharga borish, mahallaning yaxshi-yomon kuniga yarash kabi o‘zbek millatiga xos bo‘lgan, milliy mentalitetni ifodalovchi maqollardagi milliy realiya va lingvomadaniy kodlar o‘zbek xalqining milliy koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, lingvomadaniy kodlar unutilgan urf-odatlarni tushunishga yordam beradi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qadriyatlar asosida shakllangan maqollarda o‘zbek xalqiga xos mehmonlarni e’zozlash, bolajonlik, hurmat, jonkuyarlik va boshqa fazilatlar namoyon bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Почепцов Г.Г. Семиотика. М.: Рефл-бук; К.: Ваклер,2002. - С.11.
2. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 231.
3. Степанов Н.И. Коды культуры: семиотический язык и культурологический аспекты// Идеи и идеалы. №1 (11). Т.2,2012. - С. 130.
4. Савицкий В.М.Порождение речи: дискурсивный подход: монография. Самара: ПГСГА,2013. - С. 126.
5. Хомяков Э.А. Коды культуры в жаргонной фразеологии // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Гуманитарные науки. Филология. №3(31),2014. - С.151-160.
6. Красных В.В. Коды и эталоны культуры // Язык, сознание, коммуникация: Сб.статьй. Вып. 19. М.: МАКС Пресс, 2001. - С. 5-19.
7. Томахин Г.Д. Теория перевода
8. Xolmonova Z., Saidaxmedova O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Т.,2018. – В. 25.
9. Махмуд ибн Ҳусайн ибн Мухаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготи-т-турк) [3 жилдлик]. 2-жилд. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. —Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2016. —Б. 26.

10. O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T, Musaqulov A, Sarimsoqov B. – Toshkent: “Sharq”, 2005. -B. 246
11. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. [www.ziyouz.kutubxonasi](http://www.ziyouz.kutubxonasi)
12. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. [www.ziyouz.kutubxonasi](http://www.ziyouz.kutubxonasi)